

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### **2022-2023-YILLARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son **Farmoniga** muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini 2022-2023-yillarda yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) 2022-yil yakuniga qadar:

aholi yashash maskanlarini keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrab olish darajasini 98 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari bo‘ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini 60 foizga yetkazish;

40 ming km optik tolali aloqa liniyalarini qurish hamda qo‘shimcha 800 ming xonadonni yuqori tezlikdagi internetga ulash imkoniyatini yaratish orqali optik tolali aloqa qamrovini 80 foizga yetkazish;

elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini 2 barobar oshirib, 4 millionga yetkazish;

hududlarda yoshlarning zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga va ularni kafolatlangan buyurtmalar bilan ta‘minlashga xizmat qiladigan markazlarni yaratish orqali IT-xizmatlar eksporti hajmini 100 mln dollarga yetkazish;

b) 2023-yil yakuniga qadar:

raqamli texnologiyalar sohasida masofaviy ta‘lim shaklida kadrlar tayyorlash faoliyatini rivojlantirish orqali yiliga 6,5 ming nafardan ortiq yoshlarning axborot texnologiyalari yo‘nalishida ta‘lim olishini yo‘lga qo‘yish;

davlat organlari, shu jumladan mahalliy hokimlik organlarida hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda 214 ta axborot tizimi va dasturiy mahsulotlarni joriy etish.

2. 2022-2023-yillar uchun quyidagilar:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” **1-ilovaga** muvofiq;

davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq;

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq;

ayrim davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini idoraviy raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini kompleks jadallashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” **3a — 3e-ilovalarga** muvofiq;

hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxati **4 — 17-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining **20-**, **24<sup>1</sup>-**, **30-** va **69-moddalariga** asosan:

ikki oy muddatda, keyinchalik har chorak yakunida mobil aloqa operatorlarining takliflariga muvofiq antenna-machtalarni o‘rnatish uchun maqsadli zarur yer uchastkalari (manzili, koordinatalari va maydoni) ro‘yxatini shakllantirsin;

ro‘yxatga kiritilgan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh yer uchastkalarini o‘ziga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish uchun ushbu ro‘yxatni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyat hokimliklariga taqdim etsin;

antenna-machtalarni o‘rnatish uchun o‘ziga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini ochiq tanlov asosida mobil aloqa operatorlariga ijaraga bersin. Bunda ayni bir yer uchastkasi yoki antenna-machtalardan birgalikda foydalanish bo‘yicha tajribani ommalashtirishga alohida ustuvorlik beriladi;

ro'yxatga kiritilgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasiga kirgan yoki boshqa yer egalari, foydalanuvchilari, ijarachilariga ajratilgan yer uchastkalarida antenna-machtalarni o'rnatish va ulardan foydalanish uchun tuman (shahar) hokimliklari yoki yer egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari hamda aloqa operatorlari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PQ-204-son qarorida belgilangan tartibda o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) belgilanishini ta'minlasin.

4. Belgilansinki, 2022-yil 1-oktabrdan boshlab operator va provayderlarga telekommunikatsiya obyektlarida texnik vositalarni o'rnatish uchun loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga topshirilgan sanadan boshlab qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi, bunda loyiha-smeta hujjatlari 15 kunlik muddatda ekspertizadan o'tkaziladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Sanitariya-epidemiologiya xizmati mobil aloqa tarmoqlari radioelektron vositalaridan foydalanishni boshlash uchun yong'in nazorati xizmati xulosasi hamda sanitariya pasporti Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — Yagona portal) orqali ikki haftadan oshmagan muddatda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

Adliya vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Sanitariya-epidemiologiya xizmati manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda yong'in nazorati xizmati xulosasini va sanitariya pasportini rasmiylashtirish tartibini tanqidiy qayta ko'rib chiqsin hamda uni soddalashtirish, shu jumladan mavjud tartib-taomillarni maqbullashtirish orqali muddatlarni qisqartirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritisin.

5. 2022-yil 1-sentabrdan boshlab respublikaning barcha hududlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali masofaviy xizmatlarni eksport qilish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilsin va quyidagilar ularning asosiy vazifalari etib belgilansin:

autsorsing xizmatlarini ko'rsatishga o'qitish orqali dasturiy mahsulotlar va IT-xizmatlarni eksport qilishga qiziqishni oshirish;

respublika bo'ylab faoliyat yuritayotgan autsorsing xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun mutaxassislar tayyorlash;

autsorsing xizmatlarini ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lganlar hamda masofaviy xizmatlar eksporti markazlarida tashkil etiladigan o'quv kurslari bitiruvchilari uchun buyurtmalar topishda ko'maklashish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda masofaviy xizmatlar eksporti markazlarini Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o'rinlarda — IT-Park) talablariga mos ta'mirlangan va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlangan zamonaviy binolarga joylashtirsin.

Yoshlar ishlari agentligi masofaviy xizmatlar eksporti markazlarini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta'minlasin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi masofaviy xizmatlar eksporti markazlariga muntazam ravishda chet el bozorlaridan buyurtmalarni jalb qilish va yoshlarni ish bilan ta'minlash choralari ko'rib borsin.

6. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha yanada qulayliklar yaratish maqsadida 2022-yil 1-noyabrdan:

mobil aloqa operatorlari, tijorat banklari hamda to'lov tizimlari operatorlariga axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda, o'zlarining mobil ilovalari orqali Yagona portaldagi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishga;

identifikatsiyalovchi ID-kartaga joylashtirilgan elektron raqamli imzo kalitlari orqali Yagona portalning mobil ilovasida joriy etilgan elektron davlat xizmatlaridan foydalanishga ruxsat berilsin.

Bunda elektron davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar "Elektron hukumat" tizimining yagona identifikatsiyalash axborot tizimi orqali identifikatsiya qilinadi.

7. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Yoshlar ishlari agentligining 2023-yildan boshlab har yili yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi startap loyihalarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan umumiy mukofot jamg'armasi 1 million AQSh dollari bo'lgan Prezident sovrini uchun tanlovni o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda mazkur tanlovni tashkil qilish va o'tkazish tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida IT-ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish hamda eksportga yo'naltirish bo'yicha startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida 1 milliard so'mgacha bo'lgan grantlar ajratish tartibi joriy qilinsin.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlar uchun Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan dastlabki bosqichda 60 milliard so'm mablag' yo'naltirsin.

9. 2023-yil 1-yanvardan boshlab **18-ilovada** ko'rsatilgan davlat organlarining rasmiy veb-saytlari va portallarini "Yagona darcha" tamoyili asosida o'z ichiga oluvchi O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali yagona platformasi ishga tushirilsin.

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi 2023-yil 1-yanvarga qadar yagona elektron hujjat aylanish tizimi, xabarlar almashish messenjeri, yig'ilish va tadbirlar kalendari, himoyalangan elektron pochta va videokonferensiyalar o'tkazish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining avtomatlashtirilgan ish joyi — "Digital office" elektron tizimi (keyingi o'rinlarda — "Digital office" tizimi) ishlab chiqilishini va birinchi bosqichda, sinov tariqasida vazirlik tizimida, keyinchalik barcha davlat organlarida joriy etilishini ta'minlasin. Bunda:

"Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi "Digital office" tizimining operatori hamda uni texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, uzluksiz ishlashi va axborot xavfsizligini ta'minlashga mas'ul etib belgilanadi;

"Digital office" tizimi **19-ilovada** ko'rsatilgan davlat organlari va tashkilotlarning tegishli axborot tizimlaridan foydalanishning yagona nuqtasi sifatida tashkil etiladi.

11. Belgilansinki, 2022-yil 1-oktabrdan boshlab davlat axborot tizimlari va resurslarining ma'lumotlari:

idoralararo hamkorlik maqsadlarida foydalanish uchun — "Elektron hukumat" tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali beg'araz asosda;

tijorat maqsadlarida foydalanish uchun — "Elektron hukumat" tizimining Raqamli ma'lumotlar platformasi orqali to'lov asosida taqdim etiladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining davlat axborot tizimlari va resurslari ma'lumotlarini davlat organi va tashkiloti bo'lmagan uchinchi shaxslarning axborot tizimlariga to'g'ridan to'g'ri integratsiya qilish orqali taqdim etishi taqiqlansin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bir oy muddatda Idoralararo integratsiyalashuv platformasi va Raqamli ma'lumotlar platformasiga ulanish tartibini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

12. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2022-yil 1-oktabrdan boshlab davlat axborot tizimlari va resurslari "Elektron hukumat" tizimining ma'lumotlarni qayta ishlash markaziga "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq bosqichma-bosqich joylashtiriladi, saqlanadi va qayta ishlanadi;

b) 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat axborot tizimlari va resurslari ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash uchun server qurilmalari va uskunalari xarid qilish — Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;

axborot tizimlariga hujumlar hamda tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha avtomatlashtirilgan intellektual tizimlarni, shuningdek, aloqa texnik kanallari orqali maxfiy axborot

tarqalishidan himoya qiladigan texnik vositalar hamda dasturiy mahsulotlarni xarid qilish, ishlab chiqish va joriy qilish — kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

v) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va pochta aloqasi sohasidagi tijorat tashkilotlarida davlat nomidan aksiyador (ta'sischi, ishtirokchi) vakolatlarini amalga oshiradi.

13. Belgilansinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab barcha vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining (keyingi o'rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalari monitoringi — “NIS.UZ” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi, ular bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'lar hisobi — Davlat statistika qo'mitasining statistik hisobotlarida yuritiladi.

Bunda davlat organlari va tashkilotlari har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar loyihalarning ijro holati va ular doirasida o'zlashtirilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlarni ularni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarni ilova qilgan holda “NIS.UZ” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimida aks ettirib borilishini ta'minlaydi.

14. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5099-son Farmoni 5-bandining **ikkinchi xatboshisida** nazarda tutilgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar Respublika norezidentlaridan axborot texnologiyalariga oid xizmatlarni sotib olganda ham tatbiq etiladi.

15. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab **20-ilovada** ko'rsatilgan 7 ta ijtimoiy-iqtisodiy sohada bosqichma-bosqich majburiy tartibda sun'iy yo'ldosh apparatlari orqali davlat kosmik monitoringini amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilsin.

“O'zbekkosmos” agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi uch oy muddatda davlat kosmik monitoringini amalga oshirish tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

16. Quyidagilar:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida raqamli ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha vazir o'rinbosari lavozimi;

2022-yil 1-oktabrdan boshlab tuman (shahar) hokimliklari tuzilmasiga xodimlarning umumiy cheklangan soni doirasida raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri lavozimi kiritilsin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeriga Jamg'arma hisobidan ish haqiga 100 foizgacha qo'shimcha ustama haq to'lash huquqi berilsin.

17. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga quyidagi vakolatlar berilsin:

raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida, shu jumladan mavjud axborot tizimlari va dasturiy-apparat komplekslaridan foydalanish (yoki samarasiz qo'llash) borasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida barcha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarining raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarining (Chief Digital Officer) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni amalga oshirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning ishini har chorakda aniq natijalarga qarab baholab borish.

18. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining:

2023-yil 1-iyulga qadar telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishni davom ettirish maqsadida “O‘zbektelekom” AK ustav fondining 10 foizi miqdorigacha qo‘shimcha oddiy aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO);

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarning 2021 — 2025-yillar yakuni bo‘yicha davlat ulushiga hisoblangan dividendlarini mazkur korxonalar va tashkilotlar ixtiyorida qoldirish va ushbu mablag‘larni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid loyihalarni moliyalashtirishga maqsadli yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

19. Mazkur qarorning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

a) vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarining raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlari — har oy hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar ushbu qaror bilan tasdiqlangan “yo‘l xaritalari”, loyihalar hamda idoraviy raqamli transformatsiya dasturlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi hisobotni “NIS.UZ” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi;

b) axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. Shermatov: mas‘ul vazirlik va idoralar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish holatini baholaydi hamda muntazam ravishda raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlarining hisobotlarini eshitishni tashkil etadi;

har oy hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar ushbu qaror bilan tasdiqlangan “yo‘l xaritalari”, dasturlar hamda idoraviy raqamli transformatsiya dasturlari ijrosi to‘g‘risida umumlashgan tahliliy ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga kiritadi;

v) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri har chorakda:

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi yig‘ilishlarida mas‘ul vazirlik va idoralar rahbarlarining raqamlashtirish sohasidagi faoliyati natijadorligidan kelib chiqib, ularni rag‘batlantirish yoki intizomiy, shu jumladan egallab turgan lavozimidan ozod qilishgacha bo‘lgan choralarni ko‘radi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida axborot xavfsizligi sohasida ko‘rilayotgan choralar va mavjud kamchiliklar yuzasidan hisobotlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritib boradi.

20. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 22-avgust,  
PQ-357-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qaroriga  
1-ILOVA

**2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada  
takomillashtirish bo‘yicha**

**“YO‘L XARITASI”**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas‘ul ijrochi
<b>Raqamli industriya va dasturiy mahsulotlarning milliy bozorini rivojlantirish</b> Shaxsan mas‘ul: axborot texnologiyalari vaziri (Sh. Shermatov)					
1.	Hududlarda axborot kommunikatsiya-texnologiyalarini qo‘llash orqali masofaviy xizmatlarni ko‘rsatish va eksport (IT-outsourcing)	1. Markazlarni tashkil etish uchun binolarni xatlovdan o‘tkazish va xatlov natijalariga ko‘ra tegishli bino-	2022-yil sentyabr — noyabr		Axborot texnologiyalar vazirligi

	<p>qilish bo'yicha 14 ta markazni tashkil etish.</p>	<p>inshootlar (yer uchastkalar)ni ajratish.</p> <p>2. "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ (keyingi o'rinlarda — IT-park) konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib, Markazlar binolarini ta'mirlash.</p> <p>3. Markazlarni tashkil etish hamda doimiy ravishda elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash.</p> <p>4. Zarur kompyuter texnikasi va jihozlar bilan ta'minlash hamda xarid qilingan jihozlarni IT-park balansiga beg'araz o'tkazish.</p> <p>5. Yoshlarni chet tillariga o'qitish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.</p> <p>6. Tadbirkorlarni jalb etish, xorijiy mutaxassislar bilan doimiy muloqot o'rnatish va mutaxassislar malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish, Markaz bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil noyabr-dekabr</p> <p>2022-yil davomida</p> <p>2022 — 2026-yillar</p>	<p>Mahalliy budjet mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar</p> <p>Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirligi, Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari, "Hududiy elektrotarmoqlari" AJ</p> <p>Yoshlar ishlar agentligi, IT-park</p> <p>Xorijiy tillar o'rganishni ommalashtirish agentligi, IT-park, Axborot texnologiyalar vazirligi, IT-park, Bandlik va munosabatlar vazirligi</p>
2.	<p>Hududlarda IT-parkning <b>7 ta</b> filialini tashkil etish.</p>	<p>1. IT-park filiallari binolarini qurish (ta'mirlash) uchun bino-inshootlar (yer uchastkalar)ni ajratish.</p> <p>2. Binolarni qurish (ta'mirlash)ning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, pudratchi tashkilotni aniqlash.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2023-yil mart</p>	<p>Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida, budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilikda taqiqlanmagan</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirligi, Kengashi, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Toshkent viloyat hokimliklari, Axborot texnologiyalar vazirligi</p>

		<p>3. IT-park filiallari binolari qurilishini yakunlash va zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash.</p> <p>4. IT-park filiallarini zarur texnik vositalar bilan jihozlash.</p> <p>5. IT-park filiallarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2023-yil noyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p> <p>2023-2024-yillar</p>	boshqa manbalar hisobidan	
3.	<p>Axborot texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan foydalangan holda hududiy IT-parklardagi rezidentlar sonini <b>650 taga</b> olib chiqish orqali qo'shimcha <b>5 ming nafar</b> yoshlarni yuqori daromadli ish bilan ta'minlash choralari ko'rish.</p>	<p>1. IT-kompaniyalarni IT-park rezidentligiga jalb qilish maqsadida ular bilan ochiq muloqot, o'quv seminarlari va davra suhbatlarini tashkil etish.</p> <p>2. IT-park rezidenti bo'lishning afzalliklarini ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib qilish.</p> <p>3. Hududlarga IT-park rezidentlarini jalb etish va ularni qo'llab-quvvatlash, hududlarda rezidentlar sonini va eksport hajmini oshirish choralari ko'rish.</p>	<p>2022-yil dekabr</p> <p>2022-2023-yillar</p> <p>2022-2023-yillar</p>	-	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, Axborot ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirligi Kengashi, viloyat hokimliklari</p>
4.	<p>Mamlakatimizda jahon IT-bozorida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan <b>30 ta</b> yirik kompaniya faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur choralarni ko'rish.</p>	<p>1. Xorijiy IT-kompaniyalar ro'yxatini shakllantirish va ular bilan aloqalar o'rnatish.</p> <p>2. Zaruratga ko'ra tegishli kelishuvlar imzolash masalasini ko'rib chiqish.</p> <p>3. Ushbu kompaniyalarni O'zbekistonga jalb qilish.</p>	<p>2022 — 2025-yillar davomida</p>	-	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, Tashqi aloqalar vazirligi, Investitsiyalar va savdo vazirligi, IT-park</p>

5.	2022-yilda "ICTWEEK Uzbekistan" axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligini o'tkazish.	<p>1. AKT haftaligini (ICTWeek) o'tkazish bo'yicha dastur ishlab chiqish.</p> <p>2. AKT haftaligini (ICTWeek) keng targ'ib qilish.</p> <p>3. AKT haftaligini (ICTWeek) o'tkazish.</p>	2022-yil davomida	Korxonalar va tashkilotlar homiylik mablag'lari, ijrochilar mablag'lari	Axborot texnologiyalar vazirligi, Tashqi vazirligi, Investitsiyalar tashqi savdo vazirligi
6.	Istiqbolli startap loyihalarini ichki va xorijiy bozorlarga olib chiqish uchun qo'shimcha mexanizmlarni yaratish maqsadida Toshkent shahrida "Plug and Play" xalqaro texnologik markazining filialini tashkil qilish.	<p>1. "Plug and Play" xalqaro texnologik markazi bilan hamkorlik o'rnatish.</p> <p>2. O'zbekistonda "Plug and Play" xalqaro texnologik markazining rasmiy filiallarini ochish bo'yicha muzokaralar olib borish.</p> <p>3. O'zbekistonda "Plug and Play" xalqaro texnologik markazining rasmiy filialini ochish.</p> <p>4. Toshkent shahrida "Plug and Play" xalqaro texnologik markazi faoliyatini tashkil etishni "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ "IT-Park" va "AloqaVentures" venchur jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni nazarda tutuvchi investitsion kelishuvni imzolash.</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2022-yil oktyabr</p> <p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	Ijrochilar mablag'lari	Axborot texnologiyalar vazirligi, IT-park "AloqaVentures" venchur jamg'armasi
7.	Dunyoning yetakchi IT-kompaniyalari bilan O'zbekistonda ularning rasmiy filiallarini ochish bo'yicha hamkorlik o'rnatish.	1. O'zbekistonda o'z rasmiy filialini ochish istagini bildirgan dunyoning yirik IT-kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatish.	doimiy ravishda	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, Tashqi vazirligi, Investitsiyalar tashqi savdo vazirligi



		2. O‘zbekistonda IT-kompaniyalarning rasmiy filiallarini ochish bo‘yicha muzokaralar olib borish va natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.			
8.	Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida raqamli texnologiyalarga ixtisoslashtirilgan, zamonaviy talablarga javob beradigan, axborot texnologiyalari sohasida ta‘limdan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yaxlit zanjir yaratishni ko‘zda tutuvchi IT-klaster faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Manfaaddor vazirlik va idoralar ishtirokida ishchi guruhni shakllantirish. 2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. 3. Loyihani belgilangan tartibda manfaaddor vazirlik va idoralar bilan kelishish. 4. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-yil dekabr  2023-yil mart  2023-yil may  2023-yil iyun	-	Buxoro viloyati hokimligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direktoriyasi
9.	IT-park rezidentlari tomonidan axborot texnologiyalari sohasida tashkil etiladigan ta‘lim doirasida ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha xizmatni ko‘rsatishga ruxsat berish orqali rezidentlar amalga oshirishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlarini kengaytirish. Bunda, mazkur o‘qitish jarayonidan tushgan mablag‘lar hajmi axborot texnologiyalari sohasidagi ta‘limdan yillik umumiy daromadning 40 foizdan oshmasligi zarur.	Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2022-yil dekabr	-	Axborot texnologiyalari vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat oliy o‘qitish qo‘mitasi
10.	“Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali”da davlat buyurtmachilari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun dasturiy mahsulotlar, dasturiy-apparat komplekslari,	1. “Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali”da dasturiy mahsulotlar, dasturiy-apparat komplekslari, axborot tizimlarini yaratish va joriy etish bilan	2023-yil yanvar	-	Moliya vazirligi, davlat xaridlar elektron tizimining operatorlari, Axborot texnologiyalari vazirligi

	<p>axborot tizimlarini yaratish va joriy etish bilan bog‘liq buyurtmalari bo‘yicha alohida modul (veb-sahifa) yaratish va joylashtirilgan ma’lumotlarni Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasining “IT-Market” maxsus axborot portalida aks ettirish.</p>	<p>bog‘liq xarid qilish to‘g‘risidagi buyurtmalarni alohida modulda (veb-sahifada) aks ettirish va xarid jarayonlarini reyting asosida amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish.</p> <p>2. “IT-Market” maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda qo‘llaniladigan elektron ma’lumotlar bazalarini o‘zaro integratsiyalash maqsadida texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>3. Tizimlarni o‘zaro integratsiya qilish va Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida joylashtirilgan ma’lumotlarni “IT-Market” maxsus axborot portalida aks ettirish.</p>	<p>2023-yil fevral</p>		
			<p>2023-yil aprel</p>		
11.	<p>Yuridik shaxslar tomonidan xorijiy ijtimoiy tarmoqlarda reklama berish xarajatlarini korporativ xalqaro valyuta kartalari yordamida to‘lash hamda ushbu xarajatlarni soliq va boshqa hisobotlarda aks ettirish tizimini takomillashtirish.</p>	<p>Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	<p>2022-yil noyabr</p>	-	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirligi</p>
12.	<p>IT-parkning elektron reyestriga (rezidentlar va IT o‘quv kurslarini tamomlaganlik to‘g‘risidagi sertifikatlarining onlayn bazasi) kiritilgan o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan va sertifikat</p>	<p>1. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan va sertifikat olgan yoshlarga kompyuter xarid qilish uchun iste‘mol kreditlari ajratish hamda mazkur kreditlarning foiz</p>	<p>2022-yil sentyabr</p>	-	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, Yoshlarni ishga solish agentligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank</p>

	<p>olgan yoshlarga kompyuter (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmagan) xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda iste’mol kreditlari ajratish.</p> <p>Bunda: Loyihada: ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan sertifikatning haqiqiylikini elektron reyestr orqali elektron ravishda tekshirishni yo‘lga qo‘yish; iste’mol kreditlari ajratish davlat xizmatini ko‘rsatish davrida kompyuter oldi-sotdi shartnomasini talab qilishni bekor qilish; “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirgan oilalar farzandlari bo‘lgan hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga axborot texnologiyalari sohasida tahsil olishi bo‘yicha ajratilgan kredit uchun garov va kafillik talab etmaslik.</p>	<p>to‘lovlarini kompensatsiya qilish mexanizmlarini nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tasdiqlash uchun Hukumatga kiritish.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>		
13.	<p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ta’limni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi “IT-ta’lim uyushmasi”ni tashkil etish.</p> <p>Bunda, “IT-ta’lim uyushmasi”ning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilanadi: AKT sohasida faoliyat yuritayotgan ta’lim</p>	<p>1. Uyushma Nizomi va tashkiliy hujjatlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. Uyushmani belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.</p> <p>3. Uyushma faoliyatini yo‘lga qo‘yish.</p> <p>4. Uyushma tomonidan amalga oshiriladigan har yilgi ishlar yuzasidan</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p> <p>2022-yil dekabrden boshlab har yili yanvar oyida</p>	<p>Budjetdan tashqari mablag‘lar</p>	<p>Dasturiy mahsul va axborot texnologiyala texnologik par direksiyasi, Ad vazirligi</p>

	<p>tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash;</p> <p>AKT ta’limida global bozor talablarini inobatga oluvchi yagona ekotizimni shakllantirishda intellektual ko‘mak berish;</p> <p>axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yagona sertifikatlash tizimini joriy etish;</p> <p>sohadagi xususiy o‘quv markazlar reytingini shakllantirish va uni doimiy ravishda yuritish;</p> <p>O‘zbekistonda IT-ta’limni rivojlantirish uchun xorijdagi vatandoshlar tajribasidan foydalanish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish.</p>	<p>chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.</p>			
14.	<p>O‘zbekistonda mahalliy eksportyor IT-korxonalar hamda frilanslarni qo‘llab-quvvatlash orqali IT-xizmatlar eksporti hajmlarini oshirish va xalqaro IT-bozorlardagi raqamli xizmatlarga talab yuqori bo‘lgan buyurtmalarni markazlashgan holda jalb qilishga ko‘maklashish maqsadida Axborot texnologiyalari vazirligi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar ta’sischiligidagi mas’uliyati cheklangan jamiyat tashkil etish. Bunda:</p> <p>xorijiy IT-xizmatlar bozoridagi talabdan kelib chiqib, mahalliy mutaxassislar bazasini shakllantirish, doimiy tahlil qilish va yangilab borish, raqamli</p>	<p>1. MChJ Nizomi va tashkiliy hujjatlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. MChJni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.</p> <p>3. MChJ faoliyatini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>2022-yil oktyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	<p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi</p>	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi</p>

	xizmatlarga talab yuqori bo'lgan mintaqalardan buyurtmalarni jalb qilish hamda mahalliy xizmat ko'rsatuvchilar orasida eksport xizmatlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish asosiy vazifalar etib belgilanadi.				
15.	Axborot texnologiyalari sohasida xorijiy investorlar va mutaxassislariga, shuningdek, IT-park rezidentlarining ta'asischilariga (ishtirokchilariga) "IT-visa"ni taqdim etish bo'yicha tavsiya berish va tavsiyanoma (IT-Card) taqdim qilish tartibini belgilash.	"IT-visa" olish uchun tavsiya berish va tavsiyanoma (IT-Card) taqdim etish bo'yicha Nizomni tasdiqlash va Adliya vazirligiga kiritish.	2022-yil sentyabr	-	Axborot texnologiyalar vazirligi
16.	Yoshlar o'rtasida kibersport turini rivojlantirish, har yili ushbu sport turi bo'yicha hududlarda musobaqalarni o'tkazish choralarini ko'rish	<p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2022-yil oktyabr</p> <p>2022-yil noyabr</p>	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, Yoshlarning ishlari agentligi, Sportni rivojlantirish vazirligi
<b>Raqamli hukumatni rivojlantirish va elektron davlat xizmatlarining ulushini oshirish</b>					
Shaxsan mas'ul: axborot texnologiyalari vazirining birinchi o'rinbosari (O. Pekos)					
17.	"Elektron hukumat"ning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestrini takomillashtirish.	<p>1. Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestrda loyiha-texnik hujjatlarni elektron kelishish va xulosa shakllantirish funksiyasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Loyiha-texnik hujjatlarni Yagona reyestr orqali elektron kelishish va xulosa</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2023-yil mart</p>	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Axborot texnologiyalar vazirligi

		berishni yo‘lga qo‘yish.			
18.	“Elektron hukumat” tizimining ma’lumotlarni qayta ishlash markazini ishga tushirish hamda Davlat axborot tizimlari va resurslarini bosqichma-bosqich joylashtirish, saqlash va qayta ishlash.	<p>1. “Elektron hukumat” tizimining ma’lumotlarni qayta ishlash markazida ma’lumotlar bazasini joylashtirish tartibini belgilash.</p> <p>2. “Elektron hukumat” tizimining ma’lumotlarni qayta ishlash markazida davlat axborot tizimlari va resurslarini bosqichma-bosqich joylashtirish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish.</p> <p>3. Reja-jadval loyihasini “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun kiritish.</p>	<p>2022-yil dekabr</p> <p>har yili noyabr oyida</p> <p>har yili dekabr oyida</p>	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, “Elektron hukumat loyihasi” boshqarish markazi DM
19.	Elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish yuzasidan 2022-2023-yillarda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi (keyingi o‘rinlarda — Yagona portal) xizmatlar sonini kengaytirish.	<p>1. Yagona portalda 30 ta elektron xizmatlarni joriy etish.</p> <p>2. Yagona portalda 40 ta elektron xizmatlarni joriy etish.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2023-yil aprel</p>	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi
20.	Yagona portaldagi ommabop elektron davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich mobil aloqa operatorlari hamda tijorat banklarining mobil ilovalari orqali ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish.	<p>1. Yagona portaldagi ommabop elektron davlat xizmatlari ro‘yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Mobil aloqa operatorlari hamda tijorat banklari bilan ommabop elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha kelishuv bitimini imzolash.</p> <p>3. Ommabop elektron davlat</p>	<p>2022-yil oktyabr</p> <p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, manfaatlar vazirligi va idora

		xizmatlarini mobil aloqa operatorlari hamda tijorat banklarining mobil ilovalari orqali axborot xavfsizligi talablariga asosan ko'rsatilishini yo'lga qo'yish.			
21.	Yagona portalning mobil ilovasini takomillashtirish va ommabop xizmatlardan ushbu ilova orqali foydalanishni kengaytirish.	<p>1. Tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>2. Identifikatsiyalovchi ID-kartaga joylashtirilgan elektron raqamli imzo kalitlari orqali elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun alohida modul ishlab chiqish.</p> <p>3. Yagona portalning mobil ilovasi orqali nafaqaga ariza berish, shaxsiy guvohnoma olish, kommunal soha, kadastr, soliq, bojxona va mehnatga oid ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini 150 taga yetkazish.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil noyabr</p> <p>2023-yil may</p>	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Axborot texnologiyalar vazirligi, Davlat soliq qo'n Davlat personallashtir markazi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vaziri manfaatdor vazir idoralar
22.	<p><b>“Aholining elektron davlat reyestri”</b> axborot tizimini ishlab chiqish jarayonini tashkil etish. Bunda:</p> <p>yagona kirish nuqtasiga ega bo'lgan aholi to'g'risidagi ishonchli va eng yangi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;</p> <p>“Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasini mazkur tizim operatori etib;</p> <p>Axborot-kommunikatsiya</p>	<p>1. “Aholining elektron davlat reyestri” axborot tizimini ishlab chiqish jarayonini tashkil etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>2. Aholi to'g'risidagi ishonchli va dolzarb ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oluvchi <b>“Aholining elektron davlat reyestri”</b></p>	<p>2023-yil mart</p> <p>2023-yil 1-iyul</p>	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Axborot texnologiyalar vazirligi, Davlat personallashtir markazi, Adliya vazirligi, ishlar vazirligi, Elektron texnologiyalar rivojlantirish mar Davlat soliq qo'n

	<p>texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasini — mazkur tizimni ishlab chiqish bo'yicha moliyalashtirish manbai etib belgilash nazarda tutiladi.</p>	<p>axborot tizimini ishlab chiqish.</p>			
23.	<p>Xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat organlari va tashkilotlariga Idoralararo integratsiyalashuv platformasi va Raqamli ma'lumotlar platformasi orqali ma'lumotlarni taqdim etish tartibini belgilash.</p> <p>Bunda:</p> <p>uchinchi shaxslarni davlat axborot tizimlari va resurslarining ma'lumotlariga integratsiya qilish faqat axborot tizimi va resursi egasi hisoblangan davlat organining roziligi olingandan keyin amalga oshirilishini;</p> <p>raqamli ma'lumotlar platformasidan ma'lumotlar olish uchun to'lovlar miqdori va mablag'lar taqsimotini nazarda tutish.</p>	<p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2022-yil oktyabr</p>	-	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, Moliya vazirligi, Elektron texnologiyalar rivojlantirish markazi "Kiberxavfsizlik markazi" DU</p>
24.	<p>Masofadan turib identifikatsiyalash (biometrik identifikatsiya) va verifikatsiyalash tizimini tartibga solish.</p>	<p>1. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda ularning turlariga qarab identifikatsiyadan o'tish bo'yicha davlat standartini ishlab chiqish va qabul qilish.</p> <p>2. Yagona standart talablari asosida "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimini bank-moliya</p>	<p>2022-yil dekabr</p> <p>2023-yil mart</p>	-	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, Markaziy bank manfaatdor vazirlik idoralar</p>



		sohasi identifikatsiya tizimlari bilan integratsiya qilish.			
25.	Soliq qo‘mitasi tomonidan rasmiylashtirilgan elektron raqamli imzodan foydalanish tarixini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida kuzatish imkoniyatini yaratish.	<p>1. Elektron raqamli imzodan foydalanish tarixini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida kuzatish imkoniyatini yaratish bo‘yicha texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Texnik hujjatlarga muvofiq Elektron raqamli imzodan foydalanish tarixini kuzatish imkoniyatini yaratish.</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	-	Davlat soliq qo‘mitasi Axborot texnologiyalar vazirligi
26.	<p>Respublika transport tizimini raqamli transformatsiya qilish ishlarini quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshirish:</p> <p>Transport vazirligiga transport tizimi korxonalarida axborot texnologiyalarini keng joriy etishni tartibga solish hamda transport sohasidagi raqamlashtirish loyihalarini ishlab chiqish, monitoring qilish va idoralararo muvofiqlashtirish huquqini berish;</p> <p>Transport vazirligi huzurida “Raqamli transport” markazini tashkil etish va unga, jumladan xorijiy ekspertlarni jalb etish;</p> <p>transportning barcha turlarida ularni biri-biriga integratsiya qilgan holda raqamlashtirish loyihalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;</p> <p>barcha transport turlari harakati va avtomobil yo‘llarini onlayn kuzatish</p>	<p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	-	<p>Transport vazirligi Axborot texnologiyalar vazirligi, Moliya vazirligi “O‘zbekiston telekommunikatsiya yo‘llari” AJ, “Uzbekistan airways” AJ, “Uzbekistan airways” AJ, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

	imkoniga ega situatsion markazni tashkil etish.				
27.	O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali negizida <b>“Davlat organlari axborot resurslarining yagona platformasi”</b> ni ishga tushirish.	<p>1. Yagona platformani yaratish bo‘yicha loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Yagona platformada vazirlik, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining alohida sahifalarini tashkil etish.</p> <p>3. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich Yagona platformaga integratsiya qilish.</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2023-yil yanvar</p> <p>reja-grafik asosida</p>	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi	Vazirlar Mahkama Axborot texnologiyalar vazirligi, Elektron texnologiyalar rivojlantirish manfaatdor vazirlik idoralar
28.	Davlat xizmatlaridan foydalanishda shaxsni identifikatsiya qilishning qo‘shimcha imkoniyatlarini yaratish maqsadida “Tasdiqlangan foydalanuvchi” maqomini va uning amal qilish muddatini belgilash, foydalanuvchining shaxsini tasdiqlashning turli usullari tavsifini, “Tasdiqlangan foydalanuvchi” maqomi uchun talab etiladigan ma’lumotlar va davlat xizmatlari ro‘yxatini tasdiqlash.	<p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2022-yil oktyabr</p> <p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat personallashtirish markazi
29.	“Fuqarolarning raqamli pasporti” loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan muayyan faktlarni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyotini bekor qilish.	<p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini o‘rnatilgan</p>	<p>2022-yil sentyabr</p> <p>2022-yil oktyabr</p> <p>2022-yil noyabr</p>	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat personallashtirish markazi, Ichki ishlar vazirligi

		tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
30.	O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunini qayta ko‘rib chiqish, bunda ushbu qonunga proaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish, Mobil-ID tizimini yuritish yuzasidan aniq tartib-taomillarni o‘rnatish hamda elektron hukumat loyihalarini barqaror moliyalashtirish manbalarini belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni tayyorlash.	1. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurati yuzasidan o‘rganish o‘tkazish. 2. O‘tkazilgan o‘rganishlarga asosan ishlab chiqilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-yil sentyabr — noyabr  2022-yil dekabr	-	Axborot texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi
31.	Davlat xizmatlari va boshqa elektron hukumat axborot tizimlari xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘langan davlat boji va yig‘imlar miqdorini hisobga olishning yagona billing tizimini takomillashtirish.	1. Yagona billing tizimiga ulangan davlat idoralarining axborot tizimlarini Yagona billing tizimining yangi versiyaga migratsiya qilish bo‘yicha reja-jadvalni ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Tizimga davlat idoralari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarni bosqichma-bosqich integratsiyalash. 3. Davlat tashkilotlari qoshidagi xususiy korxonalar uchun “Kliring” modulini ishlab chiqish va ishga tushirish.	2022-yil noyabr  reja-jadvalga muvofiq  2023-yil fevral	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi	Axborot texnologiyalar vazirligi
32.	“Elektron hukumatning ma’lumotnomalar va klassifikatorlar registri” axborot tizimini takomillashtirish.	Tizimni takomillashtirish, tizimdagi klassifikatorlar turlarini ko‘paytirish va unga tegishli tashkilotlar tomonidan	2022-yil sentyabrdan boshlab doimiy ravishda	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi	Axborot texnologiyalar vazirligi

		ma'lumot kiritib borilishini ta'minlash.			
33.	<p>Yagona elektron hujjat aylanish tizimi, ma'lumotlar almashish messenjeri, yig'ilish va tadbirlar kalendari, himoyalangan elektron pochta va videokonferentsiyalar o'tkazish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining avtomatlashtirilgan ish joyi — "Digital office" tizimini yaratish.</p> <p>Bunda, yangi tizimni manfaatdor vazirlik va idoralarning axborot tizimlariga integratsiya qilish hamda ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash choralari ni o'rish.</p> <p>"Digital office" tizimiga ulanadigan axborot tizimlariga kelgusida kiritiladigan o'zgartirishlarga doir modernizatsiya ishlari va u bilan bog'liq xarajatlar tegishli vazirlik va idoralar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.</p>	<p>1. Loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish.</p> <p>2. Tizimni ishlab chiqish va Axborot texnologiyalari vazirligi tizimida sinov tariqasida joriy etish.</p> <p>3. Yagona elektron tizim bilan boshqa barcha zarur tizimlarni integratsiya qilish.</p> <p>4. Tizimni barcha vazirlik va idoralarda bosqichma-bosqich joriy etish.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2023-yil yanvar</p> <p>reja-jadval asosida</p> <p>2023-yil maydan boshlab reja-jadval asosida</p>	<p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi, ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Axborot texnologiyalar vazirligi, manfaatdor vazir idoralar</p>
34.	<p>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun mablag'lar yo'naltirilishini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga "Davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish" bo'yicha alohida umumlashtirilgan</p>	<p>1. Davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish bo'yicha xarajatlar alohida ifodalanishini ta'minlash yuzasidan taklif tayyorlash.</p> <p>2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mablag'lar ajratilishi va uning tarkibini aniqlashtirgan holda budjet tasnifiga "Davlat boshqaruvi tizimini</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p>	-	<p>Moliya vazirligi Axborot texnologiyalar vazirligi</p>



	xarajatlar moddasini kiritish.	raqamlashtirish” bo’yicha alohida umumlashtirilgan xarajatlar moddasini qo’shish yuzasidan qo’shimcha va o’zgartirish kiritish.			
